



THE SIGNIFICANCE OF CUSTOMS AND TRADITIONS IN FIQH

Nasrulloh Tukhtayev

Teacher at the Imam Tirmidhi Secondary

Special Islamic Educational Institution

PhD Candidate at the International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: nasrulloh.tuxtayev@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islamic law, custom, tradition, Hanafi school, fiqh, ma'ruf, evidence, istihsan, social relations.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the place and significance of custom and tradition as important auxiliary sources of Islamic law. Custom, which is continuously repeated in social life and accepted as a general practice, serves as an important criterion in the formation of jurisprudential rulings. In the Hanafi school, custom-based on the Qur'anic and Prophetic concept of ma'ruf—is not only an auxiliary source, but is also applied as a primary criterion in determining many practical rulings. The article discusses types of custom such as verbal and practical custom, general and specific custom, sound and corrupt custom, fixed and variable custom, as well as the necessary conditions for considering custom in legal rulings. The jurisprudential significance of custom, its role in regulating social relations, and its function in ensuring the objectives of Sharia—justice, ease, and benefit—are examined on a scientific basis.

URF VA ODATLARNING FIQHIY AHAMIYATI

Nasrulloh To'xtayev

Imom Termiziy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

O'zbekiston xalqaro islomshunosli akademiyasi tayanch doktoranti

E-mail: nasrulloh.tuxtayev@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Islom huquqi, urf, odat, Hanafiy mazhabi, fiqh, maʼruf, dalil, istihson, ijtimoiy munosabatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom huquqining muhim yordamchi manbalari qatorida urf–odatning oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Urf jamiyat hayotida davomli ravishda takrorlanib, umum qabul qilingan amaliyot sifatida fiqhiy hukmlarni shakllantirishda muhim mezon boʻlib xizmat qiladi. Qurʼon va Sunnatdagi “maʼruf” tushunchasiga tayanadigan urf Hanafiy mazhabida faqat yordamchi manba boʻlib qolmasdan, koʻplab amaliy hukmlarni belgilashda asosiy mezon sifatida qoʻllanadi. Maqolada qavliy va amaliy urf, umumiy va xususiy urf, sahih va fasid urf, sobit va mutagʻayyir urf kabi turlar, shuningdek urfning hukmlarda eʼtiborga olinishi uchun zarur shartlar yoritiladi. Urfning fiqhiy ahamiyati, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi oʻrni va shariat maqsadlari – adolat, yengillik va manfaatni taʼminlashdagi roli ilmiy asosda tahlil etiladi.

ЗНАЧЕНИЕ ОБЫЧАЕВ И ТРАДИЦИЙ В ФИКХЕ

Насрулло Тухтаев

Преподаватель Среднего специального исламского учебного заведения имени Имама Тирмизи

Докторант Международной исламоведческой академии Узбекистана

E-mail: nasrulloh.tuxtayev@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исламское право, обычай, традиция, ханафитский мазхаб, фикх, маʼруф, доказательство, истихсан, общественные отношения.

Аннотация: В данной статье анализируются место и значение обычая и традиции как важных вспомогательных источников исламского права. Обычай, постоянно повторяющийся в общественной жизни и признаваемый общепринятой практикой, служит важным критерием в формировании фикховых постановлений. В ханафитском мазхабе обычай, основанный на понятии «маʼруф», закреплённом в Коране и Сунне, является не только вспомогательным источником, но и применяется как основной критерий при определении многих практических решений. В статье освещаются такие виды обычая, как словесный и практический, общий и частный, правильный и порочный, стабильный и изменяемый, а также необходимые условия для учёта обычая в

юридических постановлений. Юридическая значимость обычая, его роль в регулировании общественных отношений и его функция в обеспечении целей шариата – справедливости, облегчения и пользы – анализируются на научной основе.

Kirish. Islom huquqi (fiqh) o'zining nazariy asoslarini Qur'on, Sunnat, Ijmo' va Qiyos kabi asosiy manbalardan oladi. Ushbu manbalar musulmon huquqshunosligi uchun poydevor vazifasini o'tagan bo'lsa-da, tarixiy jarayon davomida jamiyat hayotida yuzaga kelgan barcha ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy muammolarni faqat ular orqali hal etish imkoniyati mavjud emas edi. Shu sababli fiqh usulida qo'shimcha manbalar, ya'ni yordamchi dalillar shakllangan bo'lib, ular orasida urf (odat) alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda hanafiy mazhabida urf-odatning huquqiy manba sifatida shakllanish jarayoni, fiqhiy hukmlarda tutgan o'rni hamda uning metodologik asoslari qiyosiy-manbashunoslik yondashuvi asosida o'rganildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy tamoyillar asosida amalga oshirildi:

1. Manbashunoslik (tahqiq) usuli

Tadqiqotning nazariy bazasini hanafiy fiqhiga oid asosiy manbalar – “Hidoya”, “Badoi’ as-Sanoiy”, “Al-Mabsut”, “Radd al-Muhtor”, “Ihkamul-Ahkam” hamda usul al-fiqhga doir “Usulush-Shoshiy”, “Talvix”, “Mustafso”, “Muvofaqot”, “Furuq” kabi asarlar tashkil etdi. Ushbu manbalar qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, urf tushunchasining lug'aviy, istilohiy va huquqiy rivojlanish bosqichlari aniqlashtirildi.

2. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli

Hanafiy mazhabida urfning qo'llanishi Shofe'iy, Molikiy va Hanbaliy mazhablaridagi yondashuvlar bilan taqqoslandi. Urfning naslarga nisbatan quvvati, umumiy-mahsus holatlardagi e'tibor darajasi hamda mazhablararo farqlovchi jihatlar ilmiy asosda tahlil qilindi.

3. Tarixiy usul

Urfning shakllanishi, Rasululloh (s.a.v.) davridagi amaliy talqinlari, sahoba va tobeinlar davrida ijtimoiy-huquqiy muhitda tutgan o'rni tarixiy xronologiya asosida o'rganildi. Islom huquqshunosligida urfning mustaqil dalil sifatida shakllanishiga doir tarixiy jarayonlar tizimli ravishda tahlil etildi.

4. Deskriptiv-analitik (tahlil va talqin) usuli

Urfning turlari – qavliy, amaliy, umumiy, xususiy, sahih va fasid kabi tasniflar fiqhiy qoidalar asosida sharhlab berildi. “Al-ma'rufu ka-shartin” va “Al-'ada muhakkama” kabi nazariy qoidalar mazmunan talqin qilinib, amaliy tatbiqi tahlil qilindi.

5. Naqliy dalillarni tahlil qilish usuli

Urfning shariatdagi o'rnini Qur'onda "ma'ruf" tushunchasi asosida, Rasululloh (s.a.v.) sunnatlarida va sahobalar amaliyotida qay darajada mustahkamlangani daliliy manbalar asosida tahlil qilindi. Naqliy dalillarning fiqhiy xulosalar bilan uyg'unligi ko'rsatib berildi.

6. Fiqhiy-usuliy qiyos (istinbot) usuli

Urfning matnni xoslashtirish, qayd etish yoki ma'noni chegaralashdagi roli fiqhiy istinbot uslubi orqali yoritildi. Shuningdek, urfning qiyos, istihson va maslahat kabi usullar bilan o'zaro munosabati tahlil qilindi.

7. Amaliy keys-tahlil (case analysis) usuli

Nikohdagi mahr miqdori, savdo bitimlaridagi odatiy shartlar, ijara amaliyoti, iste'mol madaniyati va mulkiy munosabatlar singari real fiqhiy masalalarda urfning qo'llanishi amaliy misollar asosida o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari urfning islom huquqida, xususan, hanafiy fiqhida muhim ijtimoiy-huquqiy institut sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Qur'on oyatlarida "ma'ruf" tushunchasining ko'p bora tilga olinishi, Rasululloh (s.a.v.)ning amaliy fatvolarida jamiyatda shakllangan odatlarni e'tiborga olganlari urfning shariatdagi o'rnini kuchaytiradi.

Hanafiy mazhabida urf nafaqat yordamchi dalil, balki amaliy huquqiy masalalarda hukm chiqaruvchi mezon sifatida baholanadi. Imom A'zam Abu Hanifa va uning shogirdlari ijtimoiy muhit va odatlarni fiqhiy qarorlarning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rganlar. Shu sababli hanafiy fiqhida urf matn va dalillar bilan bir qatorda ijtimoiy haqiqatni aks ettiruvchi manba sifatida qo'llanadi.

Urfning shariatga zid bo'lmagan holdagi qo'llanilishi ijtimoiy manfaat, qulaylik va adolat tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Nikohdagi "mahrul-misl", tijoratdagi "o'rtacha narx", ijaradagi odatiy shartlar kabi ko'plab masalalar aynan urfga asoslangan holda tartibga solingan.

Shu tariqa, hanafiy mazhabida urf-odatlardan hukm olish fiqhning hayotiyligini ta'minlaydi, huquqiy qarorlarning jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchanligini oshiradi va fiqh tafakkurining ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini namoyon etadi.

Ayriboshlagan holda, urf:

- qavliy va amaliy,
- umumiy va xususiy,
- sahih va fasid,
- sobit va o'zgaruvchan

kabi turlarga bo'linadi. Har bir tur fiqhda alohida ahamiyat kasb etadi va hukm chiqarishda turlicha metodologik vazifa bajaradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari hanafiy fiqhida urfning o'rni keng va ko'p qirrali bo'lib, u shariatning asosiy maqsadlari – adolat, manfaat, qulaylik va zararlarni bartaraf etish tamoyillarini ta'minlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu tadqiqotda hanafiy mazhabida urf-odatning huquqiy manba sifatida shakllanishi, fiqhiy hukmlarda egallagan o'rni va uning uslubiy-metodologik asoslari qiyosiy-manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy usullar asosida amalga oshirildi:

1. Manbashunoslik (taxqiq) usuli

Tadqiqotning asosiy qismi klassik fiqh manbalariga: “Hidaya”, “Badoi’ as-Sano’i”, “Al-Mabsut”, “Radd al-Muhtor”, “Ihkamul-Ahkam”, shuningdek, usul al-fiqhga oid manbalar – “Usulush-Shoshiy”, “Talvix”, “Mustafso”, “Muvofaqot”, “Furuq” kabi asarlarga tayanadi. Manbalar qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, urf tushunchasining leksik, istilohiy va huquqiy rivojlanish bosqichlari aniqlandi.

2. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli

Hanafiy mazhabida urfning qo'llanishi Shofe'iy, Molikiy va Hanbaliy mazhablaridagi yondashuvlar bilan qiyoslanib, umumiy qoidalar va farqlovchi jihatlar ilmiy asosda taqqoslandi. Urfning naslarga nisbatan quvvati, uning umumiy va maxsus holatlardagi e'tibor darajasi mazhablararo qiyos orqali tahlil qilindi.

3. Tarixiy usul

Urfning paydo bo'lishi, islom huquqshunosligida yordamchi dalil sifatida shakllanishi va hanafiy fiqhining ijtimoiy muhitga moslashuviga ta'siri tarixiy xronologiya asosida tadqiq etildi. Sahiha rivoyatlar, Rasululloh (c.a.v.) davridagi amaliy nuqtalar va tobein-tabatobein davridagi huquqiy amaliyotlar jadal o'rganildi.

4. Tahlil va talqin (deskriptiv-analitik) usuli

Urfning turlari – qavliy, amaliy, umumiy, xususiy, sahih va fasid bo'linishlari fiqhiy qoidalar asosida sharhlanib, ularning amaliy tatbiqi, shartlari va mahdudliklari tahlil qilindi. Qoida: “Al-ma'rufu kaarten-shartin”, “Al-'ada muhakkama” kabi istilohlar mazmunan talqin etildi.

5. Naqliy dalillarni tahlil qilish usuli

Qur'on oyatlari (“ma'ruf” tushunchasi), Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari, sahoba amallari va salafning ijtihodiy qarorlari sistemali ravishda tahlil qilinib, urfning shariatdagi e'tibori daliliy jihatdan asoslandi.

6. Fiqhiy-usuliy qiyos (ilmiy istinbot) usuli

Urfning hanafiylar nazdida hukm chiqarishda matnni xoslashtirish, qayd etish va ma'noni cheklashdagi roli qiyosiy istinbot orqali o'rganildi. Urfning istihson, masalahat va qiyos bilan tutgan o'rni alohida fiqhiy tahlil etildi.

7. Amaliy keys-tahlil usuli (case analysis)

Nikohda mahr miqdori, savdo bitimlarida adatiy shartlar, ijara munosabatlari, taom va mulklar haqidagi odatiy tushunchalar kabi amaliy masalalarda urfning qo'llanishi real fiqhiy misollar asosida tahlil qilindi.

Muhokama. Hanafiy mazhabida urfning huquqiy manba sifatidagi o'rni fiqh metodologiyasining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Urf – jamiyatda davomli tarzda takrorlanib, odat tusiga kirgan amaliyot bo'lib, Qur'on va Sunnatda "ma'ruf" tushunchasi orqali o'z huquqiy asosini topgan. "Ma'ruf"ning qo'llanishi shariatning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashuv tamoyilini aks ettiradi. Rasululloh (s.a.v.) ham kundalik hayotda qaror topgan odatlarni hukm chiqarishda inobatga olganlari bu manbaning shar'iy maqomini yana-da mustahkamlaydi.

Hanafiy usulchilar nazariyasida urf nafaqat yordamchi dalil, balki ijtimoiy ehtiyojlarni tartibga soluvchi metodologik omil sifatida qaraladi. Nikohda mahrul-misl, tijorat bitimlaridagi vakolat darajasi, ijaraga oid majburiyatlar kabi masalalarning mazmuni bevosita urfga tayangan holda aniqlanadi. Bu holat Hanafiy fiqhining hayotiyligi, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi va zamon o'zgarishlariga mos fikriy dinamizmini ko'rsatadi.

Urfning an'anaviy tasnifi – qavliy va amaliy, umumiy va xususiy, sahih va fasid, sabit va mutag'ayyir kabi bo'linmalar – fiqhiy qo'llanishning murakkab, ammo izchil tizimini shakllantiradi. Qavliy urf insonlarning lug'aviy ifodalarni ma'lum ma'noda ishlatishidan kelib chiqqan bo'lsa, amaliy urf muomalalarda keng tarqalgan amaliyotlarni ifodalaydi. Faqihlar "ma'ruf shart kabidir" qoidasi bilan qo'llangan urfni fuqarolik-huquqiy munosabatlarda deyarli matn darajasiga ko'targanlar.

Shuningdek, shariat naslariga zid kelmaydigan sahih urf shar'iy hukmlarni kengaytirishga xizmat qilsa, fasid urf inkor qilinadi. Zamon va makon o'zgarishiga bog'liq mutag'ayyir urf esa fiqhning moslashuvchanligini ta'minlaydi va ijtimoiy dinamikani aks ettiradi. Bu tasniflar Hanafiy usulining "odamlarda qaror topgan amaliyotga binoan hukm belgilash" prinsipini chuqur ochib beradi.

Urfning shar'iy e'tiborga olinishi Qur'on, Sunnat va fuqahoning ijmo'si bilan asoslangan. Nafaqa, kiyim-kechak, xarajat miqdorining aniq belgilab qo'yilmagani – ularni urfga havola qilinganini bildiradi. Oisha roziyallohu anho rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) "odatga binoan yetarli miqdorda olish"ga ruxsat berishlari fiqhda urfning muhim o'rni borligini ko'rsatadi. Bu kabi dalillar urfning shar'iy manba sifatida qadrlanishi bevosita matniy asosga ega ekanini ko'rsatadi.

Yakuniy fikr sifatida ta'kidlash mumkinki, Hanafiy mazhabida urf – ijtimoiy hayot va fiqhiy nazariyaning uchrashuv nuqtasi bo'lib, shariatning moslashuvchanligini, zamon va makon o'zgarishlariga mos tarzda hukm chiqarish imkoniyatini ta'minlaydi. Urf orqali fiqhiy tafakkur

jamiyatning real ehtiyojlari bilan uzviy bog'lanadi, shar'iy hukmlarning hayotiyligi va amaliy qiymati oshadi. Bu jihatlar Hanafiy fiqhining metodologik yuksakligini va uning ijtimoiy funktsionalligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari urf va odatning islom huquqshunosligida, ayniqsa Hanafiy mazhabida, fundamental ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Urf jamiyatda barqaror ravishda amal qilib kelayotgan odatiy amaliyotlarni o'z ichiga olgani uchun, u fiqhiy hukmlarni hayotiy va amaliy tarzda shakllantirishda muhim mezon sifatida xizmat qiladi. Qur'on va Sunnatdagi ma'ruf tamoyili urfning shariat doirasida qonuniy asosga ega ekanini ko'rsatib, uning huquqiy kuchini mustahkamlaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Hanafiy mazhabida urf ba'zan qiyosdan ustun qo'yilgan hollar ham mavjud. Bu, avvalo, fiqhning jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchan va dinamik huquqiy tizim ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, urfning shariatga zid bo'lmagan, umumiy qabul qilingan va zarar keltirmaydigan turlari – sahih urf – faqat huquqiy kuchga ega ekani, guzashta va hozirgi ilmiy manbalar asosida asoslab berildi.

Xulosa qilib aytganda, urf:

- shariat maqsadlari – adolat, yengillik va manfaatni ta'minlashda muhim vosita;
- fiqhiy hukmlarning amaliy hayot bilan uyg'unlashuvini ta'minlovchi mexanizm;
- ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda foidali me'yor;
- jamiyatdagi o'zgarishlarni hisobga olish imkonini beruvchi huquqiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy huquqiy masalalar va insonlarning kundalik amaliyotida urfni inobatga olish shariat hukmlarini yanada maqsadga muvofiq va hayotiy qiladi. Shu bois urf kelgusi ilmiy tadqiqotlar va islom huquqshunosligi amaliyotida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Karkhi, A. H. (1992). Usul al-Rusul. Cairo: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
2. Al-Sa'di, A. (2001). Al-Wajiz fi usul al-fiqh. Beirut: Dar al-Basha'ir.
3. Ibn 'Abidin, M. A. (2000). Radd al-Muhtar (Vols. 1–6). Cairo: Dar al-Fikr.
4. Ibn Qayyim al-Jawziyya. (2002). I'lam al-Muwaqqi'in. Cairo: Dar al-Hadith.
5. Qaraboev, M. (2010). Islom huquqi nazariyasi. Tashkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Al-Kasani, 'A. (1986). Bada'i' al-Sana'i' (Vols. 1–7). Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
7. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2017). Fiqh (Vol. 3). Tashkent: Hilol-Nashr.
8. Nafsov, A. (2005). Islom huquqining manbalari va asoslari. Tashkent: Ma'naviyat.

9. Usmonov, A. (2020). Fiqhning rivojlanish tarixi. Tashkent: Islom Sivilizatsiyasi Markazi.